


## 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot\*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 18 942 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatidan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,7 % o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 482 ta (16,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 17 980 tani tashkil etgan.




\* fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari


## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni 18 942 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,7 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,7 % savdo, 16,2 % sanoat, 15,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,3 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 24,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning ulushi (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, %)



**Ro‘yxatdan o’tgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



## Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 724 ta), Sharof Rashidov (3 137 ta), Zomin (1 540 ta), G'allaorol (1 454 ta) va Forish (1 311 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (421 ta), Zafarobod (562 ta) va Arnasoy (586 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 17 980 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 482 taga (16,0 %) o'sgan.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, %)



Savdo - 21,6 %



Sanoat - 16,1 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 15,0 %



Qurilish - 10,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 6,3 %



Tashish va saqlash - 3,3 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 1,4 %



Axborot va aloqa - 1,1 %



Boshqa turlari - 24,7 %

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 443 ta), Sharof Rashidov (3 021 ta), Zomin (1 454 ta), G'allaorol (1 411 ta) va Forish (1 261 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (393 ta), Zafarobod (489 ta) hamda Arnasoy (575 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida)


2020-yil yanvar-mart oylarida 959 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 406 taga kamdir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
yillar kesimida soni**  
(yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (200 ta), Sharof Rashidov (151 ta), Forish (74 ta), Baxmal (72 ta) va G'allaorol (69 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Arnasoy (25 ta), Yangiobod (27 ta), Mirzacho'l (36 ta), Zafarobod (46 ta), Paxtakor (59 ta) hamda Do'stlik (62 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
hududlar bo'yicha soni**  
(yanvar-mart oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (314 ta), qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi (197 ta), sanoat (151 ta), qurilish (97 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalarida (53 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (14 ta), tashish va saqlash (21 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (103 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(1-aprel holatiga ko'ra)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 14 814 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4 226 ta, oilaviy korxonalar – 838 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9 396 ta va boshqalar 354 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 9 774 tani tashkil etib, ulardan 9 396 tasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 090 taga yoki 27,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida 658 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,2 % ga kamdir.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	01.04.2020 yil		2020-yil yanvar-mart oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jami</b>	<b>9 774</b>	<b>9 396</b>	<b>658</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 714	1 620	135
Sanoat	1 859	1 790	89
Qurilish	1 451	1 404	89
Savdo	2 550	2 467	228
Tashish va saqlash	476	457	21
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	559	534	30
Axborot va aloqa	101	97	8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	130	128	11
Boshqa turlari	934	899	47

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning jami sonidagi eng ko'p ulushi savdoda 26,3 %, sanoatda 19,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17,2 %, qurilishda 14,9 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5,7 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kam ulushi esa axborot va aloqada 1,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,4 %, tashish va saqlashda 4,9 % va boshqa faoliyat turlarida 9,5 % ga to'g'ri kelgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(hududlar kesimida 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Kichik tadbirdorlik subyektlari soni**  
*(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)*

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14 762 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-aprel holatiga qaraganda 18,6 % ga oshgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar**  
*(hududlar kesimida 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*

	<b>Kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>kichik korxona</b>	<b>mikrofirmalar</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>14 762</b>	<b>600</b>	<b>14 162</b>
Jizzax shahri	4 701	252	4 449
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	440	10	430
Baxmal	788	20	768
G'allaorol	1 140	50	1 090
Sharof Rashidov	2 664	115	2 549
Do'stlik	554	19	535
Zomin	1 143	39	1 104
Zarbdor	630	18	612
Zafarobod	344	7	337
Mirzacho'l	455	18	437
Paxtakor	537	32	505
Forish	1 064	13	1 051
Yangiobod	302	7	295

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi**  
(hududlar kesimida 1-aprel holatiga ko'ra, %)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 701 tasi (31,8 %) Jizzax shahri, 2 664 tasi (18,0 %) Sharof Rashidov, 1 143 tasi (7,7 %) Zomin hamda 1 140 tasi (7,7 %) G'allaorol tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14 762 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3 878 tasi (26,3 %) – savdo, 2 876 tasi (19,5 %) - sanoat, 2 655 tasi (18,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 886 tasi (12,8 %) - qurilish, 1 133 tasi (7,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 588 tasi (4,0 %) - tashish va saqlash, 177 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 175 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa sohasi va 1 394 tasi (9,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, %)



2020-yil yanvar-mart oylarida 914 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 395 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (193 ta), Sharof Rashidov (143 ta), Forish (73 ta), Baxmal (68 ta) va Zarbdor tumanlari (67 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Arnasoy (23 ta), Yangiobod (25 ta), Mirzacho'l (35 ta) hamda Zafarobod (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi**

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart holatiga, %)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (314 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (195 ta), sanoatda (151 ta) va qurilishda (97 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (9 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (13 ta) hamda tashish va saqlashda (21 ta) tashkil etilgan.


**Oilaviy korxonalar**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 905 tani tashkil etib, ulardan 838 tasi yoki 92,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 44,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


**Oilaviy korxonalarning soni**  
(hududlar kesimida 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	01.04.2020 yil		2020-yil yanvar-mart oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>905</b>	<b>838</b>	<b>124</b>
Jizzax shahri	220	210	23
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5	4	-
Baxmal	42	37	2
G'allaorol	63	61	4
Sharof Rashidov	215	197	17
Do'stlik	66	62	4
Zomin	76	67	6
Zarbdor	52	52	22
Zafarobod	61	50	14
Mirzacho'l	14	14	5
Paxtakor	35	32	23
Forish	42	39	1
Yangiobod	14	13	3

**Oilaviy korxonalar soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni**  
(hududlar kesimida 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 41,3 % yoki 346 tasi sanoat, 19,3 % yoki 162 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 16,0 % yoki 134 tasi savdo, 15,5 % yoki 130 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 5 tasi qurilish, 0,4 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 6,6 % yoki 55 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga, %)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni

(hududlar kesimida yanvar-mart oylarida, birlikda)

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	124	100,0
Jizzax shahri	23	18,5

tumanlar:

Arnasoy	-	-
Baxmal	2	1,6
G'allaorol	4	3,2
Sharof Rashidov	17	13,7
Do'stlik	4	3,2
Zomin	6	4,8
Zarbdor	22	17,7
Zafarobod	14	11,3
Mirzacho'l	5	4,0
Paxtakor	23	18,5
Forish	1	0,8
Yangiobod	3	2,7

2020-yil yanvar-mart oylarida 124 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 45,9 % ga kamroqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (23 ta), Paxtakor (23 ta), Zarbdor (22 ta) va Sharof Rashidov tumanlari (17 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Forish (1 ta), Baxmal (2 ta), Yangiobod (2 ta) hamda G'allaorol (2 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, %)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,7 % yoki 43 tasi sanoat, 27,4 % yoki 34 tasi savdo, 21,0 % yoki 26 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,3 % yoki 14 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 1,6 % yoki 2 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4,0 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 187 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 45 taga yoki 31,7 % ga o'sgan.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 187 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqорisi Jizzax shahri (72 ta), Forish (20 ta), G'allaorol (16 ta), Sharof Rashidov (16 ta) va Zomin (15 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho'l (2 ta), Zarbdor (2 ta), Do'stlik (4 ta) hamda Baxmal tumanlarida (6 ta) to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining soni

(yillar kesimida 1-aprel holatiga, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning davlatlar kesimida soni**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 122 tasi qo'shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, %)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni**  
*(hududlar kesimida 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>187</b>	<b>122</b>	<b>65</b>
Jizzax shahri	72	52	20
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	9	7	2
Baxmal	6	4	2
G'allaorol	16	11	5
Sharof Rashidov	16	8	8
Do'stlik	4	2	2
Zomin	15	9	6
Zarbdor	2	1	1
Zafarobod	6	1	5
Mirzacho'l	2	-	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	20	15	5
Yangiobod	10	4	6

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (yanvar-mart oylarida)

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 5 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahri (1 ta yoki jamidagi ulushi 20,0 %), Baxmal (1 ta yoki 20,0 %), G'allaorol (1 ta yoki 20,0 %), Sharof Rashidov (1 ta yoki 20,0 %) va Yangiobod tumanlari (1 ta yoki 20,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni

(davlatlar kesimidagi yanvar-mart oylarida, birlikda)




Koreya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasidan 1 ta, Rossiya Federatsiyasida 1 ta va Italiya Respublikasidan 1 ta korxona yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar - mart oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (2 ta yoki 40,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta yoki 20,0 %), sog'lioni saqlash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 ta yoki 20,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida (1 ta yoki 20,0 %) tashkil etilgan.

## **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni**

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)*



## **Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

*(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)*

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	41	36	5
Qozog'iston Respublikasi	3	2	1
Ozarbayjon Respublikasi	4	2	2
Tojikiston Respublikasi	4	3	1
Turkmaniston Respublikasi	3	-	3
Ukraina Respublikasi	2	-	2
Moldova Respublikasi	1	1	-

Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 21,9 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Tojikiston Respublikalarida 2,1 % va Qozog'iston Respublikasi 1,6 % ga to'g'ri kelmoqda.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnomalar tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat Ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqida davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

ASOSIY SAHIFA QO'MITA HAQIDA AXBOROT XIZMATI INTERAKTIV XIZMATLAR OCHIQ MA'LUMOTLAR MUROJAATLAR KONTAKTLAR

Xizmatlar ro'yxati  
Elektron hisobot  
KTYaDR ma'lumotlari  
Uslubiy materiallar  
Statistik klassifikasiyalar  
Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati  
Korxona pasporti

STIR  
kodini kiriting

Rasmdag'i  
kodni kiriting

Kodni yangilash uchun rasenga bosing

Qidiruv

Aholini ro'yhatga olish-2022  
Harakatlar strategiyasi  
Press-rezizlar  
Choraklik natijalar  
Nashrlar – statistika haqida  
Ushbu materialdeler

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayti orqali real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olish imkoniyatiga egalar.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.: 71 230-83-65 (66)**